



XALQ DEPUTATLARI QO'QON SHAHAR KENGASHI

QARORI

2023 - yil 1 - fevral

VI-58-6-11-166-K/23

Qo'qon shahar hokimligi

Qo'qon shahar mahalliy byudjetining 2022 yillik ijrosi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27 va 165-moddalari va "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 dekabrda "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to'lyoqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5283-sonli Farmoni hamda shahar mahalliy byudjetining 2022 yillik ijrosi yuzasidan shahar moliya bo'limining hisobotini tinglab va muhokama etib, xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Qo'qon shahar hokimligi moliya bo'limi mudiri L.Mamadjonovning mahalliy byudjetning 2022 yillik ijrosi to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qo'qon shahar mahalliy byudjetining 2022 yillik ijrosi to'g'risidagi hisoboti tasdiqlansin.

Bunga ko'ra;

Qo'qon shahar mahalliy byudjetining 2022 yillik daromadlari 182 226,4 mln so'm va mahalliy byudjet xarajatlari kiritilgan o'zgartirishlar bilan birga 377 059,1 mln so'm miqdoridagi ijrosi ma'qullansin.

3. Qo‘qon shahar mahalliy byudjetining 2022 yillik uchun tasdiqlangan daromadlari va xarajatlari yoyilmasiga kiritilgan o‘zgartirishlar bilan aniqlangan rejasi 1- va 2- ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

4. Qo‘qon shahar hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Xudoynazarov, shahar hokimligi moliya bo‘limi mudiri L.Mamadjonov, Shahar Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i Q.Abdullayevlar, mas’ul tashkilot va idoralar byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushimini ta’minlash hamda byudjet daromadlar bazasini oshirish zarurligiga qaratilsin.

5. Shahar hokimligi moliya bo‘limi, shahar Davlat soliq inspeksiyasi, tegishli bo‘lim va tashkilotlar hamda byudjet mablag‘lari taqsimlovchilari bilan birgalikda Xalq deputatlari shahar Kengashiga mahalliy byudjetning ijrosi to‘g‘risida har chorakda axborot berib borilishini ta’minlasin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi raisi R.Ismailov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



M.Usmonov

Xalq deputatlari Qo'qon shahar Kengashining
2023 yil 1 fevraldagi
VI-58-6-11-166-K/23-son qaroriga
1-ilova

Qo'qon shahar mahalliy byudjet daromadlarining prongnoz ko'rsatkichlariga 2022 yil davomida kiritilgan o'zgarishlari bilan 2022 yil uchun daromadlari miqdori

№	Soxalar nomi	Qo'qon shahar mahalliy byudjeti			mln.so'm		Tasdiqlangan reja	Aniqlangan reja	O'zgarishlar (+,-)	Viloyat moliya boshqarmasi bildirishnomasiga asosan	21 657,7	21 657,7
		I,	Daromadlar jami (soliq va tushumlar)	147 265,9	Uzgarish kim tomonidan qilingan	168 923,6						
		1	Tadbirkorlardan qat'iy belgilangan soliq	7 789,0	7 798,0	9,0						
2	Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq	7 539,0	7 539,0	0,0								
3	Jismoniy shaxslardan yer solig'i	5 896,0	5 896,0	0,0								
4	Davlat mulki ijara tulovlari	428,0	428,0	0,0								
5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	969,5	444,5	-525,0	-525,0							
6	Yer qo'riqidan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari uchun)			0,0								
7	Yagona soliq to'lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar	22 139,0	24 122,0	1 983,0	1 983,0							
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	83 729,0	101 917,0	18 188,0	18 188,0							
9	Aksiz soliqlari	6 002,4	5 774,6	-227,8	-227,8							
	- benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasidan soliq	6 002,4	5 774,6	-227,8	-227,8							
10	Yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq	6 599,0	8 426,5	1 827,5	1 827,5							
11	Yuridik shaxslardan yer solig'i	6 175,0	6 578,0	403,0	403,0							

Xalq deputatlari Qo'qon shahar Kengashining
2023 yil 1 fevraldagi
VI-58-6-11-166-K/23-son qaroriga
2-ilova

**Qo'qon shahar mahalliy byudjeti xarajatlarining 2022 yil davomida kiritilgan o'zgarishlar bilan
aniqlashtirilgan 2022 yil uchun reja ko'rsatkichlari**

mln.so'm

T/r	Tashkilot nomi	Tasdiqlangan reja	Aniqlangan reja	Kiritilgan o'zgarish	shundan	
					Shahar moliya bo'limi bildirishnomasiga asosan	Viloyat moliya boshqarmasi bildirishnomasiga asosan
1	Xokimlik	26 794,0	26 428,0	-366,0	156,4	-522,4
2	Xalq deputatlari Qo'qon shahar kengashi kotibiyati	177,6	186,2	8,6	0,0	8,6
3	Maxalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi	7 306,0	6 670,4	-635,6	-1 200,1	564,5
4	Bandlikka ko'maklashish markazi	750,9	920,1	169,2	114,5	54,7
5	Veterinariya bo'limi	635,3	722,5	87,2	-10,0	97,2
6	Obodonlashtirish boshqarmasi	29 087,6	32 553,8	3 466,2	-104,4	3 570,6
7	Tibbiyot birlashma	138 258,8	170 565,2	32 306,4	-416,2	32 722,6
8	1-sonli shifoxona	371,6	447,1	75,5	70,9	4,6
9	Sanitariya epidemiologiya osoyishtalik markazi	3 321,0	4 205,4	884,4	528,5	355,9
10	Axborot kutubxona markazi	699,3	690,2	-9,1	-9,5	0,4

11	Madaniyat bo'limi	1 773,9	1 776,8	2,9	-97,9	100,8
12	1-bolalar usmirlar sport maktabi	2 635,1	3 738,2	1 103,1	65,8	1 037,4
13	2-bolalar usmirlar sport maktabi	2 292,2	3 187,0	894,8	-1,0	895,8
14	Maktabgacha ta'lim bo'limi	17 565,3	21 649,9	4 084,6	-213,1	4 297,7
15	Xalq ta'limi bo'limi	10 191,7	11 190,8	999,1	-195,2	1 194,2
16	5-musika maktab	7 023,2	7 547,6	524,4	0,0	524,4
17	6-musika maktab	2 430,6	2 651,8	221,2	0,0	221,2
18	7-musika maktab	2 155,5	2 469,6	314,1	0,0	314,1
19	Yoshlar ishlar agentligi	0,0	5 227,4	5 227,4	342,1	4 885,3
20	Moliya bo'limi	37 891,4	74 392,2	36 500,8	88,2	36 412,6
	JAMI	291 361,1	377 220,2	85 859,1	-881,1	86 740,1